

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 8 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ	26-30
<i>Rustamov Ixomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI)	31-34
<i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI	40-44
<i>Xamidova Shoir Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА	52-54

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALONIYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALONIYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ	69-81
<i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIV BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	87-93

<i>Donayev Sheroli Burxonovich</i> DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT STRATEGIYASINING AHAMIYATI	94-101
<i>Kaxarov Jasur Abulqosimovich</i> ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	102-109
<i>Rahmonov Shuxrat Shavkatovich</i> ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	110-117
<i>Sherov Alisher Bakberganovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI	118-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna</i> МАНМУДХО'JA БЕЎБУДИЙ МА'РИФАТПАРВАРЛИК Г'ОЯЛАРИ ВА УЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ- АХЛОҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАГИ КОНСТРУКТИВ МОҲИЯТИ	130-135
<i>Muhamedov Asror</i> G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR	136-145
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY AHAMIYATI	146-151
<i>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich</i> INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI	152-156
<i>Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich</i> AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI	157-162
<i>Shonazarov Jamshid Shuxratovich</i> ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ	163-168
<i>Ho'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI	169-174
<i>Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li</i> MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR SIFATIDA QARASH	175-179
<i>Muxtorova Tutixon</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	180-186
<i>Rahmonova Mavluda Abdusamadovna</i> ABDURAUFIY FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI	187-194

<i>Pirnazarov Nurnazar</i> TANA, RUX VA MA'NAVIYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING FALSAFIY TAHLILI.....	195-201
<i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV	202-209
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i> RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI	210-216
<i>Bozorbekov Ahmadbek</i> O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI	217-230
<i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i> ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH	231-236
<i>O'tebaeva Dilbar</i> TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR	237-242
<i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i> EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)	243-247
<i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i> INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	248-252
<i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i> QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI	253-256
<i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i> OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA	257-262
<i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i> FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA SPETSIFIKASI	263-268
<i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i> BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	269-272
<i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i> MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI	273-277
<i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i> TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI	278-284
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY IFODA MUKAMMALLIGI	285-292
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI	293-298

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

- Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI 299-306
- Узакова Гўзал Шариповна*
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ 307-325
- Пулатова Нодирахон Собиржонова*
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА 326-332
- Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich*
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 333-341
- Абдурахманова Нодирахон*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ 342-345
- Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li*
TA'LIM OLISH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI 346-356
- Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li*
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI 357-368
- Утанов Фурқат*
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ
МАҚОМИ 369-374
- Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li*
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH
TENDENSIYASI 375-381
- Назарова Марҳабо*
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В
УЗБЕКИСТАНЕ 382-386
- Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич*
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ
МАСАЛАЛАРИ 387-400
- Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406
- Abdikhakimov Islombek*
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS 407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

- Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK
YONDASHUVLARNING ROLI 413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....	462-467

Received: 30 July 2024
Accepted: 5 August 2024
Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF DEBUT COURSES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE DIRECTORS ON THE BASE OF LITERARY WORKS

Mamatkasimov Jahangir Abirkulovich

Associate Professor of Uzbekistan State Institute of arts and culture, Doctor of Philosophy (PhD) in the field of Pedagogical sciences

Abstract. This article examines the importance of debut training in the development of professional competence of future directors based on literary works, and recommends the methods of organizing debut training and the artistic development program of future directors. The goals and tasks and stages of the artistic development program of the future director, evaluation criteria are explained.

Key words: art, stage, director, artistic director of the course, assistant teacher of the course, professional costume, creative workshop.

BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak rejissyorlarni kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda debyut mashg'ulotlarining ahamiyati o'rganilgan bo'lib, bunda debyut mashg'ulotini tashkil etishning usullari hamda bo'lajak rejissyorlarning badiiy taraqqiyot dasturi tavsiya etiladi. Bo'lajak rejissyorning badiiy taraqqiyot dasturi maqsad va vazifalari va bosqichlari, baholash mezonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: san'at, sahna, rejissyor, kurs badiiy rahbari, kurs assistent o'qituvchisi, mutaxassislik libosi, ijodiy ustaxona.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N57>

Kirish. Har qanday ta'limiy jarayonni sifat bosqichiga ko'tarishda jarayonning dastlabki bosqichlari muhim bo'lib, bunda oliy ta'limga o'qishga qabul qilingan talabalarni o'qishning birinchi kunidanoq bo'lajak kasbiga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirish, ularning orzu-istaklari va rejalarini to'g'ri yo'lga solish, guruhda sog'lom muhitni yaratish uchun talabalar bilan birgalikda tanishuv darslarini tashkil etish o'ziga xos mas'uliyat talab etadi.

Shu ma'noda rejissura ixtisosligi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon va test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan abituriyentlar talabalikka qabul qilingach, ular bilan dars jadvalidan

tashqari holatda rejissuraga ixtisoslashgan maxsus ijodiy ustaxonada Debyut mashg'ulot o'tkazilishi tavsiya etiladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "Debyut" so'zining ma'nosiga "birinchi qadam" [4, 226], – deb ta'rif berilganligi hamda san'at sohasidagi birinchi mashg'ulot ekanligini e'tiborga olib mazkur jarayonni Debyut mashg'ulot deb nomlashimiz o'rinlidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Rejissura ixtisosligiga o'qishga qabul qilingan talabalar bilan o'tkaziladigan ilk mashg'ulotni tashkil etishning pedagogik jihatlari bo'yicha tadqiqotchilar J.A.Mahmudov, M.Abdullayeva, M.R.Yusupova, H.A.Mahmudovalar dastlabki mashg'ulot nechog'lik ahamiyatli ekanligini qayd etishgan.

Debyut mashg'ulotning maqsadi 60211200 – Rejissyorlik (estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi) ta'lim yo'nalishining 1-kursiga qabul qilingan talabalar bilan batafsil tanishish, ularga institutdagi shart-sharoitlar va sohaning spetsifikasi bo'yicha ma'lumot berishdan iboratdir.

Mashg'ulotning vazifasi: talabalarga tanlangan sohaning o'ziga xosligi, o'quv mashg'ulotlarining o'tkazilish tartibi va talablari, o'quv mashg'ulotlariga kerakli o'quv anjomlar va ulardan foydalanish tartibi, mutaxassislik fanlari uchun maxsus libos kiyilishi, ijodiy ustaxonadan foydalanishi, musiqiy, yoritish anjomlari va texnik vositalardan foydalanishi, sohaga oid o'quv adabiyotlari, badiiy adabiyotlar mutolaasi haqida ma'lumot, maslahat va tavsiyalar berish.

Muhokama va natijalar. Debyut mashg'ulot tegishli kafedra tomonidan tayinlangan kurs badiiy rahbari va assistent o'qituvchi mas'ulligida quyidagi bosqichlarda olib borilishi tavsiya etiladi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Debyut mashg'ulotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari

Bosqichlar	Mas'ullar	Vazifalar
I-bosqich Tanishuv bosqichi	Assistent o'qituvchi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Kurs badiiy rahbari va assistent o'qituvchi haqida talabalarga ma'lumot beriladi; 2. Kurs talabalarini o'zlarini tanishtiradi. Talabalar o'zi haqida ma'lumot berishda ismi-sharifi, qayerdan ekanligi, yoshi, qaysi ta'lim muassasasida o'qiganligini aytishi lozim; 3. Institut haqida, undagi shart-sharoitlar, o'quv binolari, umumiy darslarning o'tkazilish tartibi hamda institut rahbariyati bilan tanishtiriladi.
II-bosqich Tashkiliy bosqich	Kurs badiiy rahbari	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mutaxassislik fanining spetsifikasi, mutaxassislik dars mashg'ulotlarining o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi; 2. Mutaxassislik fanlari uchun maxsus libos kiyishi majburiyligi, soch turmaklari bo'yicha umumiy talablar tushuntiriladi; 3. Ijodiy ustaxonadan foydalanishi, musiqiy, yoritish anjomlari va texnik vositalardan foydalanish tartiblari tanishtiriladi;

		<p>4. Mutaxassislik mashg'ulotlariga kerakli o'quv anjomlari va ulardan foydalanish tartibi haqida ma'lumot beradi;</p> <p>5. Ijodiy ustaxonani mashg'ulotga tayyorlash uchun kunlik mas'ullar tayinlash bo'yicha tushuncha beriladi.</p>
III-bosqich Asosiy bosqich	Kurs badiiy rahbari, assistent o'qituvchi	<p>1. Bo'lajak rejissyorlarning to'rt yillik o'qish davomida ularning badiiy taraqqiyotini ta'minlovchi "Bo'lajak rejissyorning badiiy taraqqiyot dasturi" bilan tanishtirish, dasturning maqsad va vazifalari, bosqichlari, amalga oshirish lozim bo'lgan konseptual vazifalar haqida ma'lumot beriladi;</p> <p>2. Bo'lajak rejissyorlarga mazkur dasturni tayyorlash yuzasidan metodik tavsiyalar beriladi.</p>
IV-bosqich Yakuniy bosqich	Kurs badiiy rahbari, assistent o'qituvchi	<p>1. Debyut mashg'ulotida berilgan ma'lumotlarni mustahkamlash yuzasidan savol-javob o'tkaziladi;</p> <p>2. Bo'lajak rejissyorning badiiy taraqqiyot dasturini tayyorlash yuzasidan 1 haftaga uyga vazifa beriladi.</p>

Shu o'rinda ijodiy ustaxona, kurs badiiy rahbari, assistent o'qituvchi va mutaxassislik libosi tushunchalariga izoh berish lozim.

Ijodiy ustaxona bu rejissyorlik va aktyorlik san'ati uchun maxsus auditoriya, ya'ni kichik teatrdir. Ijodiy ustaxonada xuddi teatrdagi kabi sahna, tomoshabinlar zali, kiyinish va yuvinish xonalari, grim xonalari mavjud bo'lib, yoritish, ovozlashtirish texnika vositalari bilan ta'minlangan bo'ladi. Ijodiy ustaxona talabaning ikkinchi uyiga aylanishi bu amaliyotda sinalgan ijobiy holat bo'lib, ijodiy ustaxonada talaba o'zini erkin tutishi, o'z o'rnida ozodalik va saranjomlikka amal qilinishi lozim.

Kurs badiiy rahbari – bo'lajak rejissyorning kasbiy kompetentligini rivojlanishidagi asosiy lokomotiv bo'lib, tegishli fanlarni an'anaviy, noan'anaviy va "Ustoz-shogird" an'anasi asosida professional darajada o'tilishiga mas'uldir. Bo'lajak rejissyorlarning sahnaviy didi va madaniyati, badiiy tafakkuri va rejissyorlik, aktyorlik mahoratini rivojlantirishga bor mahoratini sarflovchi pedagog-rejissyordir.

Bo'lajak rejissyorlarning mustaqil rejissyorlik ishlari uchun repertuar tanlashda va ularni tahlil qilishda metodik tavsiyalar beradi. Kurs badiiy rahbarining eng asosiy vazifasi bu – kursda sog'lom va ijodiy muhitni to'g'ri shakllantirishi va bo'lajak rejissyorlarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish va namoyon etishga yetarlicha shart-sharoit yaratib berishdir.

Kurs badiiy rahbari bo'lajak rejissyorning kasbiy kompetentligi rivojlantirishda boshqa ixtisoslik fanlari "Aktyorlik mahorati", "Sahna nutqi", "Raq", "Sahna harakati va jangi", "Ritmika-plastika", "Pantomima", "Drama nazariyasi", "Ssenariynavislik mahorati" kabi fanlarning o'tilish holati, talabalarning dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish holatini nazoratga oladi va tahlil qiladi.

“Rejissura” fanidan olingan ijodiy ishlarning yuksak badiiyligini ta’minlashda yuqorida qayd etilgan fanlar bilan o’zaro integratsiyada mashg’ulotlar olib boriladi. “Rejissura” fanida mazkur fan o’qituvchilari bevosita ishtirok etib, sahnalashtirilayotgan ijodiy ishda kurs badiiy rahbariga funksional yordam beradi.

Mazkur tadqiqot maqsadi bo’lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asrlar asosida rivojlantirishga qaratilganligi sababli o’quv rejasidagi “O’zbek adabiyoti”, “Jahon adabiyoti” fanlarini ham bevosita “Rejissura” fani bilan integratsionallashgan tarzda olib borish tavsiya etiladi.

Kurs assistent o’qituvchisi – bu mutaxassislik fanlarini o’z vaqtida o’tilishi, ijodiy ustaxonalar va talabalarning dasrga tayyorgarlik jarayoni, kurs badiiy rahbari tomonidan berilgan vazifalarning o’z vaqtida bajarilishi, talabalarning kasbiy rivojlanish dinamikasini nazorat va tahlil qilishi, talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqari ijodiy faoliyatini nazoratga oluvchi pedagog-rejissyordir.

Kurs assistent o’qituvchisi mashg’ulot jarayonida kurs badiiy rahbari tomonidan talabalar ijrosi yuzasidan qayd etilgan kamchiliklar va berilgan tavsiyalar yuzasidan qo’shimcha mashg’ulotlar tashkil etib, qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etadi. Shuningdek, kurs badiiy rahbari bilan hammaslaklikda talabalar repertuarini shakllantirishda talabalarga metodik ko’rsatmalar beradi, o’zlashtirishi qiyin talabalar bilan individual mashg’ulotlarda ishlaydi.

Kurs assistent o’qituvchisi kurs badiiy rahbari bilan kelishilgan holda qo’shimcha mashg’ulotlar belgilaydi, boshqa ixtisoslik fanlaridan talabalarning o’zlashtirishini nazorat qiladi va fan o’qituvchilari bilan talabalarning o’zlashtirish bo’yicha suhbatlar olib boradi.

Pedagog-rejissyor tafakkuri juda murakkab tarkibga ega, unda nafaqat obrazli tasavvur, balki ilmiy-nazariy ong segmentlari ham bo’lishi kerak, negaki uning faoliyatining maqsadi san’atda ishlashni maqsad qilib olgan san’atkor shaxsini tug’ilishi uchun eng maqbul imkoniyat va sharoitlar yaratishdan iborat bo’ladi [3, 118].

Ma’lumki, teatr oliy o’quv yurtida pedagoglarning asosiy maqsadi har bir talabaning ijodiy individualligini ochishga intilishdan iborat bo’lishi kerak. Aktyorning individualligi tushunchasi tashqi ovoz, plastik, xarakterologik jihatlaridan tashqari “ichki yaxlitlik va nisbatan mustaqillikka” ega bo’lishni o’z ichiga olishi kerak, bu uni teatrda “ong va faoliyatning mustaqil va betakror subekt” bo’lishiga imkon beradi [5, 38].

Mutaxassislik libosi – bu birinchi o’rinda gigiyena masalasida bo’lsa, ikkinchidan trening mashqlari va repititsiya jarayonida erkin harakat qilishga moslangan. Yana bir muhim jihat ijodiy ustaxonaga kelgan talaba kiyimini almashtirish orqali ichki dunyosini ham ijodga moslashtirish lozimligidadir.

Mutaxassislik fanlari uchun maxsus libos kiyish majburiyligi bilan birgalikda qizlarning sochlari turmaklangan (yig’ishtirilgan) bo’lishi, turli taqinchoqlar, soat, mobil aksessuarlardan xoli bo’lishligi lozim. Bu borada eng avvalo pedagoglar o’zlari namuna bo’lishi lozim.

Badiiy asarni yuksak darajada idrok eta oladigan ideal kitobxonda tasavvur rivojlangan bo’lishi, emotsional obrazli xotira, empatik qobiliyatga egalik, badiiy asarning mazmuni bilan aloqadorlikda badiiy shakllarning yorqin o’ziga xosliklarini ko’ra olish kabi idrok darajalari bo’lishi muhim sanaladi [2, 76].

Teatr maktabining birlamchi vazifalaridan biri unga qadam qo’ygan har bir bo’lajak aktyorda teatr axloqi, badiiy did va madaniyatni shakllantirishdir. Ma’lumki, har bir insonda

badiiy did va axloqiy dunyoqarash ma'lum ma'noda shakllangan bo'ladi. Uni rivojlantirish uchun bo'lajak mahorat o'qituvchilari, pedagog, magistrning o'zida, avvalo, yuqori badiiy did, etik madaniyat, nazariy bilimlarini amalda ustalik bilan qo'llay olish malakasini kabi yuksak xislatlar bolishi lozim. Pedagog faqat shundagina tarbiya jarayonida samarali natijaga erishishi mumkin. O'z ustida ishlagan, tinimsiz izlangan insongina boshqalarga bilim va tarbiya bera oladi [1, 20].

Bo'lajak rejissyorning badiiy taraqqiyot dasturi (BRBTD) kurs badiiy rahbari tomonidan tasdiqlanishi va quyidagi tarzda tayyorlanishi tavsiya etiladi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Bo'lajak rejissyorning badiiy taraqqiyot dasturi

I. Umumiy ma'lumot													
Dasturning maqsadi	Bo'lajak rejissyorning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar orqali rivojlantirish.												
Dasturning vazifalari	<ul style="list-style-type: none"> – bo'lajak rejissyorlarning to'rt yillik o'qish davomida ularning badiiy taraqqiyotini adabiy asarlar mutolaasi asosida ta'minlash; – bo'lajak rejissyorlarning adabiy asarlar o'qishi va uni tahlil qilishiga metodik yordam ko'rsatish; – bo'lajak rejissyorning individual dunyoqarashi asosida unga adabiy asarlar tavsiya etish; – bo'lajak rejissyorlarning adabiy asarlar o'qishini nazoratga olish; – bo'lajak rejissyorlarning adabiy asarlar o'qish dinamikasini tahlil qilish. 												
Kutilayotgan natija:	Bo'lajak rejissyor: <ul style="list-style-type: none"> – adabiy asar haqida tushuncha, adabiy normalar, adabiy janrlar, o'zbek va jahon adabiyoti namunalari, o'zbek va jahon adabiyoti yozuvchi va shiorlarining ijodiy uslubi haqida bilimga ega bo'ladi; – adabiy asarlar mutolaasi, uning g'oyasi va maqsadi, asarning mazmun-mohiyati, syujeti, adabiy asarning ijtimoiy, tarbiyaviy va badiiy ahamiyati, adabiy asarning kompozitson tuzilishi haqida malakaga ega bo'ladi; – adabiy asar asosida ijodiy ish sahnalashtirish ko'nikmasiga ega bo'ladi. 												
II. Bo'lajak rejissyorning badiiy taraqqiyot dinamikasi													
Semestr	Adabiy asar janri va miqdori (o'rtacha hisobda)												Xulosa
	Drabbl	Hikoya	Qissa	Roman	Drama	Komediya	Tragediya	Ssenariy	Spektakl	Kino	Muzey	Ko'rgazma	
I	45	15	1	1					15	5	3	2	
II	45	15	2	1					15	5	3	2	
III	45	30	3	2	1	1	1		30	10	3	2	
IV	45	15	3	3	3	3	3		30	10	3	2	
V	45	15	3	3	6	6	6	6	30	10	3	2	
VI	45	15	4	3	9	9	9	6	30	10	3	2	
VII	45	15	4	3	9	9	9	9	30	10	3	2	
VIII	45	15	4	4	9	9	9	9	30	10	3	2	
Jami:	360	135	24	20	37	37	37	30	210	70	24	16	
Umumiy: 1000 ta													
III. Baholash mezonlari													
Qoniqarsiz			Qoniqarli			O'rta			Yaxshi			A'lo	

Adabiy asarlarni qisman o'qigan, mazmun-mohiyatini anglay olmagan.	Adabiy asarlarni qisman o'qigan, mazmun-mohiyatini qisman anglagan.	Adabiy asarlar o'qigan, mazmun-mohiyatini qisman anglagan, shaxsiy fikrga ega bo'lmagan.	Adabiy asarlar o'qigan, mazmun-mohiyatini anglagan, shaxsiy fikrga ega, mazkur asarlar asosida ijodiy ish sahnalashtirgan.	Adabiy asarlarni to'liq o'qigan, mazmun-mohiyatini chuqur anglagan, shaxsiy fikrga ega, mazkur asarlar asosida ijodiy ish sahnalashtirgan.
--	---	--	--	--

BRBTDda o'qilishi lozim bo'lgan adabiy asarlar va teatr, kino hamda muzeylarga tashriflar miqdori o'rtacha hisobda olingan bo'lib, bunda talabning indiviudalligi hisobga olinib asarlar soni ko'paytirilishi yoki kamaytirilish mumkin. Bu kurs badiiy rahbari, assistent o'qituvchi va talaba hammaslakligida amalga oshiriladi.

BRBTDning nazorati kurs badiiy rahbari tomonidan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida hamda mustaqil rejissyorlik ishlarini sahnalashtirish jarayoni asosida olib boriladi hamda o'zlashtirish ko'rsatkichlari Yakuniy nazorat ballari hisobidan baholanishi tavsiya etiladi.

Xulosa. Bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda Debyut mashg'ulotlarining ahamiyatini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishga qaratilgan Debyut mashg'ulotlarini o'tkazilish va BRBTDni tayyorlash va uni nazoratga olish;

VRBTDni tayyorlashda talabning individual imkoniyatini e'tiborga olish pedagogik zaruratdir;

bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda kurs badiiy rahbari va assistent o'qituvchi mas'uliyatini oshirish hamda rejissura va boshqa ixtisoslik fanlarini integratsiyalash orqali olib borish.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. Darslik. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2014. – 192 b.
2. Turakulova O.A. Adabiy ta'lim jarayonida akademik litsey o'quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi: ped. fan. fals. dok. diss. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2020. – 172 b.
3. Yusupova M.R. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: Turon – Iqbol. 2018. – 197 b.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. Gidrofiliya – Zebra. Tahrir hay'ati M.Aminov, B.Ahmedov, T.Daminov, T.Dolimov va b. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 704 b.
5. Резвитский И.И. Личность. Индивидуальность. Общество: Проблема индивидуализации и ее социально-философский смысл. – Москва: Политиздат, 1984. – 141 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).